



"ODOBNOMA" MAVZULARI BO'YICHA TA'LIM - TARBIYAVIY ISHLARNI LOYIXALASH

*Alimjonova Yanglish Qurbon qizi
Samarqand viloyati Bulung'ur pedagogika kolleji
Maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Odobnoma" mavzulari bo'yicha ta'lim - tarbiyaviy ishlarni loyixalash bo'yicha fikrlar va aniq ma'lumotlar bor

Kalit so'zlar: massacre, MTN, metodika, ALTHOUGH, kalonka.

Kirish

Maqsad: Bolalarga kattalarga va tengdoshlari nisbatan samimiyligini munosabatda bo'lish malakasini shakllantirish, kattalarga "Assalomu alaykum" degan so'zni to'g'ri va to'liq aytib salomlashishga o'rgatish. Bolalarga "Assalomu alaykum, sizga salomatlik tilayman" degan ma'noni anglatsa "Vaalaykum assalom, sizga ham salomatlik tilayman" ekanligini tushuntirish. O'zbekona milliy salomlashishning o'ziga xosligi tabassum, ochiq chexra, samimiyligini mehr bilan bir-biriga boqish. "Assalomu alaykum" deb salomlashganda ochiq chexrali va tabassum bilan salom beruvchi alik oluvchilarning, tovushlari bir-biriga eshitarli bo'lishi kerakligini tushuntirish.

Kerakli jixozlar: Mavzu bo'yicha mazmunli rasmlar, AKT, videoroliklar, qo'shiq, kalonka.

Faoliyatning borishi: Tarbiyachi : Qani keling bolajonlar bir salomlashib olaylikchi. Assalomu alaykum, mening jajidan, shakar bolajonlarim bugun siz bilan odob salomdan boshlanadi mavzusida suxbatlashamiz. Qani bolajonlar biz suhbatimizni nimadan boshlab oldik.

Parizoda: Salomlashishdan.

Tarbiyachi: Ertalab yuz-qulimizni yuvgach, kimlarga salom beramiz?

Adiba: Bobomiz va buvijonlarimizga va ota-onamizga hamda akademiklarimizga.

Tarbiyachi: Juda to'g'ri bolajonlar ko'cha-kuyda yurganimizdachi.

Dilbar: O'zimizdan kattalarga

Tarbiyachi: Assalomu alaykum so'zining ma'nosi sizga sog'liq-salomatlik tilayman, degan ma'nolarini anglatadi. SHuning uchun xar birimiz "Assalomu



alaykum” so‘zini to‘liq aytishimiz kerak. O‘zbekona milliy salomlashishning o‘ziga xosligi bu tabassum, ochiq chexralik, samimiylar bilan bir-briga boqib qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib sal oldinga engashib, jilmayib Assalomu-alaykum deyish lozim.

Tarbiyachi: Videorolikdan turlicha salomlashish qoidalarini ko‘rsatib izoxlab beradi. Tarbiyachi bolalarga, kichiklar kattalarga salom berishlarini eshikdan kirgan mehmonga jo‘r bo‘lib salom berilishini va salom berishda ochiq chexralik, samimiylilik va xo‘shmuomilalik bilan berishlarini tushuntiradi. Ko‘cha-kuyda qo‘ni-qo‘shnilarni ko‘rganimizda, uchragan notanish kishilarga albatta o‘n qo‘lni ko‘ksingizga qo‘yib oldinga sal egilgan holda tavaze bilan salomlashing. Bolajonlar salom berish yaxshi odat-a. YAxshi odatlar doimo kattalarni xursand qiladi. Qani salom berish xaqida kim she‘r aytib beradi.

Saida: Salom bilan boshlanar

Bilsang odob va axloq

Salom bilan begona

Bo‘lar tezda do‘st-inoq

Marjona: Salom assalom ming ming

So‘zlar ichra durdona

Salom xar bir bolaning

Odobidan nishona

Tarbiyachi: Bolajonlar raxmat sizlarga. Uyga borganingizda to‘g‘ri salomlashishni o‘rganganingizni ota-onangizga va bobo-buvingizga aytib bering.

MTM-da bolalar bilan “Odobnama” yuzasidan tarbiyaga oid tushunchalar bolalarning yoshi, ularning yashash muhiti, shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holatlarini e‘tiborga olgan holda mashg‘ulotlarni loyihalash. MTT dasturi asosida turli yosh guruhlarda odobnomaga oid hafta va kundalik mavzularni o‘rganish. Bolalarga odob-ahloq namunalarini kun davomidagi faoliyatlarida singdirish ishlariga ota-onalarni jalb qilish. Odobnama mavzularini turli tadbirlar, bayram ertaliklari, ko‘ngil ochish soatlarida qollash.

Hafta mavzulari: “Men va mening do‘sstarim”, “Men va bolalar bog‘chasi”, “Bizning yaxshi ishlarimiz”, “Barcha kasblar muhim”, “Xushmuomalalik alifbosi” bo‘yicha rivojlanish markazlari uchun ishlanmalar tayyorlash. Hafta mavzulari bo‘yicha turli yosh guruhlarda rivojlanish markazlarini tashkil etish.

MTMda “Zumradoylar davrasi” to‘garagi ta‘limining konseptsiyasi. Tarbiyaviy yo‘nalishlarning mazmuni. To‘garak yo‘riqnomasi bo‘yicha bolalar egallashi zarur bo‘lgan tushuncha, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda pedagog va ota-onalarning hamkorligi. Turli yosh guruhlarda “Zumradoylar davrasi” to‘garagi



mavzulari va ular mazmunini o‘rganish. “Ilk qadam” dasturi hafta mavzulari bilan bog‘lash.

Bolalarni odob-axloq haqida tushunchalar bilan tanishtirishga oid suhbat ishlanmalarini tuzish, ko‘rgazmalar va slaydalar tayyorlash. Matbuot materiallari bilani shlash.

Kichik, o‘rta guruhlarda “Zumradoylar davrasi” to‘garagi mavzulari bo‘yicha mashg‘ulotlarni loyihalash, ko‘rgazmalar tayyorlash. To‘garak mavzulari bo‘yicha voqeaband ijroli o‘yinlar, suhbat, sahnalashtirilgan lavhalar shaklida mashg‘ulot ishlanmasini tuzish va tashkil qilish. Turli-tuman rasmlar, ertak, rivoyat, hikoyat, maqollardan foydalish.

Katta, tayyorlov guruhlarda “Zumradoylar davrasi” to‘garage mavzulari bo‘yicha mashg‘ulotlarni loyihalash, ko‘rgazmalar tayyorlash. To‘garak mavzularining murakkablashib borishi. To‘garak mavzulari bo‘yicha video roliklar, ko‘rgazmalar va slaydalar tayyorlash, voqeaband ijroli o‘yinlar, suhbat, mehnat, sahnalashtirilgan lavhalar shaklida mashg‘ulot ishlanmasini tuzish va tashkil qilish.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019. 4. SH.M, Mirziyoyev, “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz” T 2016
5. SH.M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T:, 2016.
6. SH.M. Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi” T.: 2016 y.
7. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
8. SH.Nurmatova, SH.T.Xasanova, D.E.Asimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. Toshkent 2010 Cho‘lpon nashriyoti.